ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Published: 04.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/zjmgdm50

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 3 (2), 2026
www.jnculture.uz

Buxoro teatrida rejissyorlik izlanishlari va aktyorlik mahorati: Ubaydullo Baqoyevning “Revizor” spektakli misolida

(Directorial Innovations and Acting Mastery at the Bukhara Theatre: A Case Study of Ubaydullo Baqoyev’s Production of “The Government Inspector”)

Baxtishod G‘aybulloyev

Department of Stage Arts,
Fine Arts Institute of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
100029, Mustaqillik maydoni, 2
Uzbekistan/Tashkent
ORCID: 0009-0003-7101-1006
E-mail: baxtishod0808@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro viloyati musiqali drama teatrida rejissyorlik izlanishlari va aktyorlik mahoratining rivojlanishi Ubaydullo Baqoyev tomonidan 1976-yilda sahnalashtirilgan Nikolay Vasilyevich Gogolning “Revizor” komediyasi misolida o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi mazkur spektaklning teatr repertuaridagi tarixiy o‘rnini aniqlash, klassik dramaturgiyani sahnada talqin etish bilan bog‘liq ijodiy vazifalarni ochib berish hamda rejissyor va aktyor hamkorligining ahamiyatini yoritishdan iborat. Teatr tarixiga oid tadqiqotlar, repertuar ma’lumotlari va davriy matbuot materiallari tarixiy-qiyosiy hamda dramaturgik tahlil asosida o‘rganiladi. Aminjon Akobirov ijodiy an’analarining keyingi avlod rejissyorlari faoliyati bilan aloqasi, shuningdek, “Revizor”ning Buxoro sahnasida turli yillarda sahnalashtirilishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Jafar G‘ulomov ijro etgan Anton Antonovich, Muhammad Rafiqov yaratgan Xlestakov va Fayzulla Abdullayev talqinidagi Osip obrazlarining dramaturgik xususiyatlari, satirik xarakterlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda jamoaviy ijroning badiiy vazifalari tahlil qilinadi. Bunda tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar bilan dramaturgik tahlil asosidagi mualliflik xulosalari o‘zaro farqlanadi. Tadqiqot natijasida mazkur spektakl Buxoro teatrida klassik dramaturgiyani o‘zlashtirish, rejissyorlik qarashlarining rivojlanishi va aktyorlik san’atining ijodiy imkoniyatlarini o‘rganishda muhim tarixiy-badiiy ahamiyatga ega ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro teatri, Ubaydullo Baqoyev, Nikolay Gogol, “Revizor”, rejissyorlik san’ati, aktyorlik mahorati, klassik dramaturgiya, satirik obraz, sahnaviy talqin.

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 3 (2), 2026
www.jnculture.uz

Abstract

The article examines the development of directing approaches and acting skills at the Bukhara Regional Musical Drama Theatre in the second half of the twentieth century, using Ubaydullo Baqoyev's 1976 production of Nikolai Vasilyevich Gogol's comedy The Government Inspector as a case study. The research aims to determine the historical significance of this production within the theatre's repertoire, identify the artistic challenges associated with interpreting classical drama on stage, and explore the importance of collaboration between the director and actors. Studies on theatre history, repertoire records, and periodical publications are examined through historical-comparative and dramaturgical analysis. Particular attention is paid to the relationship between Aminjon Akobirov's creative traditions and the activities of subsequent generations of directors, as well as to different productions of The Government Inspector staged at the Bukhara Theatre over the years. The article analyzes the dramaturgical characteristics of Anton Antonovich, portrayed by Jafar G'ulomov; Khlestakov, performed by Muhammad Rafiqov; and Osip, interpreted by Fayzulla Abdullayev, alongside the relationships between satirical characters and the artistic functions of ensemble performance. A distinction is made between information documented in historical sources and the author's conclusions derived from dramaturgical analysis. The study demonstrates the historical and artistic significance of this production for examining the interpretation of classical drama, the development of directing approaches, and the creative potential of acting at the Bukhara Theatre.

Keywords: Bukhara Theatre, Ubaydullo Baqoyev, Nikolai Gogol, The Government Inspector, directing, acting skills, classical drama, satirical character, stage interpretation.

Аннотация

В статье исследуется развитие режиссёрских поисков и актёрского мастерства в Бухарском областном музыкально-драматическом театре во второй половине XX века на примере комедии Николая Васильевича Гоголя «Ревизор», поставленной Убайдулло Бакоевым в 1976 году. Цель исследования заключается в определении исторического места данного спектакля в репертуаре театра, выявлении творческих задач, связанных со сценической интерпретацией классической драматургии, а также раскрытии значения сотрудничества режиссёра и актёров. На основе историко-сравнительного и драматургического анализа изучаются труды по истории театра, репертуарные материалы и публикации периодической печати. Особое внимание уделяется преемственности творческих традиций Аминжона Акобирова в деятельности последующих поколений режиссёров, а также истории постановок «Ревизора» на бухарской сцене в разные годы. Рассматриваются драматургические особенности образов Антона Антоновича

в исполнении Джафара Гуломова, Хлестакова в исполнении Мухаммада Рафикова и Осипа в интерпретации Файзуллы Абдуллаева, взаимоотношения сатирических персонажей и художественные задачи актёрского ансамбля. При этом проводится разграничение между сведениями, зафиксированными в исторических источниках, и авторскими выводами, полученными на основе драматургического анализа. В результате исследования обосновывается историко-художественное значение данного спектакля для изучения освоения классической драматургии, развития режиссёрских подходов и творческих возможностей актёрского искусства Бухарского театра.

Ключевые слова: Бухарский театр, Убайдулло Бакоев, Николай Гоголь, «Ревизор», режиссёрское искусство, актёрское мастерство, классическая драматургия, сатирический образ, сценическая интерпретация.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek teatr san’atida yuz bergan badiiy-uslubiy izlanishlar viloyat teatrlari ijodiy faoliyatida ham muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mazkur jarayonda klassik dramaturgiya namunalarini sahnaga olib chiqish, milliy ijrochilik an’analarini professional teatr tajribasi bilan uyg‘unlashtirish, aktyorlarning individual ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish hamda rejissyorlik talqinining mustaqilligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etdi. Buxoro viloyati musiqali drama teatrining 1960–1980-yillardagi faoliyati aynan shu masalalarni o‘rganish uchun muhim material hisoblanadi. Chunki ushbu davrda teatr repertuaridagi janrlar rang-barangligi bilan birga, sahnaviy obraz yaratish, aktyor va rejissyor hamkorligi, dramatik ziddiyatni ifodalash hamda jamoaviy ijro tamoyillariga munosabat ham rivojlanib bordi.

Buxoro teatrida professional aktyorlik maktabining shakllanishi bir necha ijodiy avlod tajribasi bilan bog‘liq. Dastlabki jamoalarda faoliyat yuritgan ijodkorlar, Moskva o‘zbek drama studiyasida tahsil olgan san’atkorlar, shuningdek, keyingi yillarda respublikaning teatr oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan mutaxassislar mazkur jarayonning davomiyligini ta’minladilar. Teatrning professional asosda rivojlanishi rejissyorlik va aktyorlik faoliyatini yagona ijodiy

jarayon sifatida qarash imkonini yuzaga keltirdi. Turli dramaturgik maktablarga mansub asarlarni o‘zlashtirish esa aktyorlardan nafaqat sahna nutqi va tashqi ifoda vositalarini, balki qahramon ruhiyatini, xarakter mantig‘ini va dramatik vaziyatning ichki sabablarini anglashni talab etdi.

Teatrshunos T. Tursunov Buxoro teatri taraqqiyotini yoritishda uning repertuaridagi yangilanishlar, rejissyorlar faoliyati va aktyorlar tarkibining shakllanishiga e’tibor qaratadi. Jumladan, 1940-yillarda teatr jamoasining Nazokat Ne’matova, Aminjon Akobirov singari iste’dodli ijodkorlar hisobiga boyib borishi keyingi davrdagi professional taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida ko‘rsatiladi [1]. Bu jarayon teatrda ustoz-shogird an’analarining davom etishi, turli avlod vakillarining bir sahnada ishlashi hamda ijrochilik tajribasining boyishiga imkon yaratdi.

Mazkur ijodiy muhitda Aminjon Akobirovning rejissyorlik faoliyati alohida o‘rin tutdi. Uning milliy dramaturgiya bilan bir qatorda jahon klassikasi namunalariga murojaat qilishi, xususan, V. Shekspirning “Gamlet” tragediyasini Buxoro sahnasida talqin etishi teatr aktyorlarining murakkab dramatik xarakterlar ustida ishlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Muhammad Rafiqovning Gamlet obrazi bu boradagi muhim ijodiy tajribalardan biri bo‘ldi. Buxoro teatrining 1960–1980-yillardagi ijrochilik yutuqlarini baholashda M. Rafiqov yaratgan Gamlet va Ibn Sino singari obrazlarning badiiy ta’sirchanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

“Aminjon Akobirov ustozlar an’anasini davom ettirib, teatr tarixidagi spektakllarni o‘zining rejissyorlik talqini bilan qaytadan sahnalashtirish ishlari bilan boshlaydi. Teatr repertuarini bebaho asarlar bilan boyitgan, “Nurxon”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra”, “Alisher Navoiy”, “Uylanish”, “Gamlet”, “Guli siyoh”, “Vatan ishqi”, “Qalb xotirasi”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Komde va Mudan”, “Sharqdan sado”, “Gavhari shamchiroq”, “Duel”, bundan tashqari Aminjon Akobirov “Taqdir”, “Intiqom”, “Nurafshon tong” dramalarini yozib

sahnalashtirgan. U Jalol Ikromiyning “Duxtari otash”, “Buxoroning o‘n ikki darvozasi” romanlari asosida inssenirovkalar qilgan. U tarjimon sifatida S. Ulug‘zodaning “Gavhari shamchiroq”, S. G‘anining “To‘y” komediyalarini, A. Korneychukning “Qalb xotirasi” dramalarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, rejissyor sifatida sahnalashtirgan. A. Akobirov teatrda o‘ttiz yil ham rejissyor, ham aktyor va badiiy rahbar sifatida Buxoro teatrining gullab-yashnashiga o‘z hissasini qo‘shgan” [2]. Nazarimizda, Aminjon Akobirov Buxoro teatrida keyingi avlod rejissyorlarining shakllanishi uchun muhim ijodiy zamin yaratgan. Uning rejissyorlik an’analarini davom ettirgan Ubaydullo Baqoyev esa avvalgi sahnaviy tajribaga tayangan holda yangi badiiy yechimlar izlashga intildi. Shu jihatdan Baqoyevning “Revizor” komediyasiga murojaati Buxoro teatrida klassik dramaturgiyani o‘zlashtirish an’analarining izchil davom etishi va rejissyorlik talqinining rivojlanishi nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

U. Baqoyevning “Mukofot”, “Qopqon”, “Nurafshon tong”, “Ibn Sino”, “Kelin va kuyov” singari spektakllari uning turli mavzu va janrlardagi dramaturgik materialga murojaat qilganini ko‘rsatadi. Mazkur faoliyat doirasida 1976-yilda sahnalashtirilgan N. V. Gogolning “Revizor” komediyasi alohida e’tiborga molik. Asar rejissyor oldiga klassik dramaturgik matnni sahnada qayta gavdalantirish, satirik xarakterlarning ichki mantig‘ini ochish, aktyorlar ijrosini yagona g‘oyaviy yo‘nalishga bo‘ysundirish hamda tomoshabinga tanish bo‘lgan ijtimoiy illatlarni ta’sirchan ifodalash vazifasini qo‘ydi.

“Revizor”ning Buxoro teatri repertuaridagi o‘rni ham tarixiy jihatdan diqqatga sazovordir. Teatrning repertuar ro‘yxatida ushbu komediya turli yillarda sahna yuzini ko‘rgan. Ilk marotaba 1933-yilda G. Mirskiy, 1937, 1944 va 1951-yillarda B. Jamolov, 1976-yilda esa U. Baqoyev rejissyorligi bilan qayd etilgan. Mazkur ketma-ketlik Gogol komediyasining Buxoro teatrida turli davrlarda sahna hayotiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

O‘zbek dramatik teatri rejissurasining rivojlanish tamoyillari va sahna talqinidagi uslubiy masalalar M. To‘laxo‘jayevaning tadqiqotlarida ham o‘rganilgan. Shu nuqtayi nazardan, “Revizor”ning Buxoro sahnasidagi yangi talqinini faqat asarning qayta sahnalashtirilishi sifatida emas, balki rejissyorlik fikri va aktyorlik ijrosi o‘rtasidagi badiiy munosabatni kuzatish imkonini beruvchi ijodiy tajriba sifatida baholash lozim.

N. V. Gogol komediyasining asosiy badiiy xususiyati shundaki, unda kulgi tashqi vaziyatlar yoki alohida personajlarning qiliqlari bilangina cheklanmaydi. Asardagi satirik mazmun mansabdor shaxslarning ichki qo‘rquvi, ijtimoiy mavqeyini saqlab qolishga intilishi, o‘zaro munosabatlardagi soxtalik hamda yolg‘on tasavvurlar orqali yuzaga chiqadi. Xlestakovning revizor deb qabul qilinishi tasodifiy voqea bo‘lsa-da, mazkur xatolikning davom etishi amaldorlar muhitidagi ma’naviy zaiflik va manfaatparastlik bilan bevosita bog‘liq. Binobarin, “Revizor”ni sahnalashtirayotgan rejissyor uchun komediyaning tashqi kulgili holatlaridan ko‘ra, ana shu holatlarni vujudga keltirayotgan ruhiy va ijtimoiy sabablarni ochish muhimdir.

Buxoro teatrida komediya janriga munosabat avval ham teatr tanqidchilarining e’tiborida bo‘lgan. Jumladan, 1962-yilda “Toshbolta oshiq” spektakliga yozilgan taqrizda sahnadagi ortiqcha masxarabozlik asarning asosiy g‘oyasini ikkinchi planga surib qo‘ygani tanqid qilingan [3]. Nazarimizda, bu mulohaza “Revizor” komediyasining sahnaviy talqinini baholashda ham kulgi vositalarining dramaturgik mazmun bilan uyg‘unligini muhim mezon sifatida belgilashga asos beradi.

U. Baqoyevning 1976-yilgi spektaklini tahlil qilishda aynan shu dramaturgik xususiyat muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Rejissyorlik talqinini baholashda asarning umumiy mazmunini qayta bayon qilishdan ko‘ra, personajlar o‘rtasidagi munosabatlar qanday dramatik ziddiyatga asoslangani, aktyorlar oldiga

qanday ijodiy vazifalar qo‘yilgani va ularning ijrosi spektakl g‘oyasini qay darajada ochishga xizmat qilganini aniqlash zarur.

Spektaklda Anton Antonovich rolini ijro etgan Jafar G‘ulomovning aktyorlik imkoniyatlari ana shu nuqtayi nazardan alohida e’tiborga loyiq. Gogol dramaturgiyasida Anton Antonovich shunchaki manfaatparast yoki mansabdorlikka berilgan shaxs emas. Uning xarakterida tashqi hukmronlik va ichki qo‘rquv bir-biriga zid holda namoyon bo‘ladi. U atrofidagilar oldida o‘zini qat’iyatli, tajribali va hukmron rahbar sifatida ko‘rsatishga intiladi. Biroq revizor kelishi haqidagi xabar uning odatiy xatti-harakatlarini izdan chiqaradi, mansabini yo‘qotish xavfi esa qahramonning ichki beqarorligini yuzaga chiqaradi.

Mazkur obrazni sahnada yaratishda aktyor uchun muhim vazifa uning tashqi qiyofasi bilan ichki holati o‘rtasidagi ziddiyatni ochishdan iborat. J. G‘ulomovning komik rollardagi avvalgi ijrochilik tajribasi Anton Antonovich xarakterini talqin etishda muhim asos bo‘lib xizmat qilgan, deb qarash mumkin. Chunki mazkur obraz aktyordan vaziyat komizmini his etish bilan birga, qahramon xatti-harakatining psixologik sabablarini ham asoslashni talab qiladi. Obrazning badiiy mazmuni aynan uning mansabdor sifatidagi soxta salobati va shaxs sifatidagi qo‘rquvi o‘rtasidagi qarama-qarshilikda ochiladi.

Anton Antonovich talqinidagi asosiy murakkablik shundaki, qahramonning salbiy xususiyatlarini biryoqlama tasvirlash uning dramaturgik mazmunini sayozlashtirishi mumkin. Agar aktyor obrazni faqat qo‘pol, makkor va kulgili mansabdor sifatida ko‘rsatsa, undagi ichki ziddiyat tomoshabin e’tiboridan chetda qoladi. Shu sababli rolning badiiy qiymati xarakterdagi ijtimoiy va ruhiy belgilarni birlashtira olish bilan belgilanadi. J. G‘ulomov ijrosini o‘rganish ham aktyorlik mahoratidagi ana shu masalani – satirik xarakterga hayotiy asos berish muammosini – tahlil etishga imkon yaratadi.

Komediyaning ikkinchi markaziy qahramoni Xlestakov obrazini Muhammad Rafiqov ijro etgan. Mazkur rol aktyorlik nuqtayi nazaridan o‘ziga xos murakkablikka ega. Xlestakov klassik ma’nodagi oldindan rejalashtirilgan firibgarlikni amalga oshiruvchi shaxs emas. Uning xarakterida yengiltaklik, shuhratparastlik, xayolparastlik, vaziyatga moslashuvchanlik va o‘zini boshqalarga yuqori mavqedagi inson sifatida ko‘rsatishga intilish ustuvorlik qiladi. Qahramonning yolg‘onlari ko‘pincha puxta o‘ylangan maqsaddan emas, balki o‘z shaxsini bo‘rttirib tasavvur qilish va kutilmagan vaziyatdan foydalanish istagidan tug‘iladi.

M. Rafiqovning Xlestakov obraziga murojaat qilishi uning aktyorlik faoliyatidagi janriy imkoniyatlarini o‘rganishda muhim hisoblanadi. Aktyorning avvalgi dramatik rollardagi tajribasi, jumladan, Gamlet timsolini yaratish jarayonida orttirgan ijrochilik malakasi, boshqa tabiatga ega bo‘lgan satirik xarakterga munosabatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Bunda ikki obraz o‘rtasidagi farq faqat biri tragediya, ikkinchisi komediya qahramoni ekanida emas. Gamletning dramatik tabiati chuqur ichki mushohada va axloqiy tanlov bilan bog‘liq bo‘lsa, Xlestakovning xatti-harakatlarida yuzakilik, o‘zini namoyish qilishga intilish hamda vaziyat ta’sirida o‘zgarib boradigan ruhiy holatlar yetakchilik qiladi.

Xlestakov rolini sahnada yaratishda aktyor uchun muhim bo‘lgan jihatlardan biri personajning o‘z yolg‘oniga munosabatini aniqlashdir. Chunki obrazning komik ta’siri qahramonning boshqalarni ongli ravishda aldashidangina emas, balki uning o‘zini boshqalarga qanday ko‘rsatishi va atrofdagilar uni qanday qabul qilishi o‘rtasidagi tafovutdan ham kelib chiqadi. M. Rafiqov ijrosining badiiy xususiyatlarini shu asosda o‘rganish aktyorning xarakter yaratishdagi imkoniyatlari, dramatik va komik ifoda vositalari o‘rtasidagi munosabatni ochishga xizmat qiladi.

Muhammad Rafiqovning aktyorlik faoliyatidagi janriy izlanishlarni baholashda uning avvalgi sahna tajribasiga oid davriy matbuot materiallari ham

ahamiyatlidir. Jumladan, J. Kamolovning 1968-yilda e’lon qilingan “Gamlet – Buxoro sahnasida” nomli maqolasida aktyorning Gamlet obrazini yaratishi va ushbu talqinning tomoshabinlar tomonidan qabul qilinishi ijobiy baholangan [4]. Mazkur dalil M. Rafiqovning “Revizor” spektaklidan avval ham murakkab dramatik xarakterlar ustida ishlaganini ko‘rsatadi. Biroq tragediyada orttirilgan tajribani komediya ijrosidagi muvaffaqiyatning bevosita isboti sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Bizningcha, aktyorning Gamlet va Xlestakov rollariga murojaati uning ijodiy imkoniyatlarini turli dramaturgik janrlar doirasida qiyosiy o‘rganish uchun muhim asos yaratadi.

Anton Antonovich va Xlestakov obrazlarini bir-biridan ajratilgan holda tahlil qilish spektakldagi asosiy dramatik munosabatni to‘liq ochib bermaydi. Chunki ushbu ikki qahramon bir-birining xatti-harakatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Anton Antonovichning qo‘rquvi Xlestakovning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirsa, Xlestakovning mavhum va bo‘rttirilgan gaplari amaldorlarning xavotirini yanada kuchaytiradi. Natijada sahnadagi kulgili vaziyatlar ikki personajning xarakteridagi zaifliklar o‘zaro to‘qnashuvi orqali rivojlanadi.

Bu munosabat rejissyor va aktyorlar oldiga muhim ijodiy vazifa qo‘yadi. Ya’ni sahnaviy muloqotda bir aktyorning harakati ikkinchisining javob reaksiyasini yuzaga keltirishi, har bir dialog dramatik vaziyatni rivojlantirishi zarur. Bunday ijodiy jarayonda aktyorlik mahorati alohida rolning muvaffaqiyati bilan emas, balki sahnadagi partnyor bilan munosabat o‘rnata olish, vaziyat mantig‘ini saqlash va spektaklning umumiy tempo-ritmiga moslashish orqali ham namoyon bo‘ladi.

Fayzulla Abdullayev ijro etgan Osip obrazi ham komediyaning dramatik tuzilishida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Osip Xlestakovning xizmatkori bo‘lsa-da, ayrim vaziyatlarda xo‘jayiniga nisbatan hayotiy voqelikni aniqroq anglaydigan, yuzaga kelgan xavfni tezroq sezadigan personaj sifatida gavdalanadi. Uning

xarakteri orqali Gogol mansab va ijtimoiy mavqe bilan insonning hayotiy farosati o‘rtasida doimo mutanosiblik mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Osip obrazining aktyorlik jihatidan murakkabligi uning ikkinchi darajali personaj sifatidagi dramaturgik vazifasini to‘g‘ri belgilash bilan bog‘liq. Ushbu qahramonni faqat kulgili xizmatkor sifatida talqin qilish asardagi muhim xarakterlararo munosabatni zaiflashtirishi mumkin. Chunki Osipning sahnadagi mavjudligi Xlestakovning tabiatini yanada aniqroq ochishga xizmat qiladi. U xo‘jayinining yengiltakligi va vaziyatni to‘liq anglamasligini ko‘rsatuvchi muhim personajlardan biridir.

F. Abdullayevning Osip rolidagi ishtirokini shu nuqtayi nazardan baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur obraz ijrosi aktyordan xarakterdagi hayotiylikni saqlash, ijtimoiy mavqeyi past bo‘lgan personajning ichki mustaqilligini ko‘rsatish hamda markaziy qahramon bilan munosabatda o‘z dramatik vazifasini aniqlashni talab etadi. Bunda aktyorning sahna nutqi, tashqi harakati va partnyor bilan muloqoti personajning badiiy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi ifoda vositalari sifatida qaraladi.

Shu tariqa, “Revizor” spektaklidagi Anton Antonovich, Xlestakov va Osip obrazlari alohida xarakter sifatida emas, balki yagona dramatik munosabatlar tizimida o‘rganilganda ularning badiiy vazifasi yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Birinchi obrazda hokimiyat va qo‘rquv, ikkinchisida xayolparastlik va o‘zini namoyish qilishga intilish, uchinchisida esa hayotiy kuzatuvchanlik va vaziyatni anglash ustuvorlik qiladi. Mazkur xarakterlar o‘rtasidagi tafovut komediyaning satirik mazmunini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

U. Baqoyev rejissyorligidagi spektaklning ijodiy xususiyatlarini baholashda aktyorlar ansambli masalasi ham alohida e’tiborni talab etadi. Chunki “Revizor”ning dramaturgik tuzilishida markaziy qahramonlardan tashqari, boshqa mansabdor shaxslar va epizodik personajlarning ham muhim vazifasi mavjud. Ularning har biri

umumiy ijtimoiy muhitning muayyan tomonini ochib beradi. Shu sababli spektaklning badiiy yaxlitligi faqat bosh rollarning talqini emas, balki sahnadagi barcha personajlarning o‘zaro munosabati, dramatik voqealar rivojidagi o‘rni va ijro uslubidagi muvozanat bilan bog‘liqdir.

Mazkur jihat Buxoro teatridagi rejissyorlik va aktyorlik maktabining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Rejissyor dramatik asarning umumiy badiiy yo‘nalishini belgilasa, aktyorlar ushbu konsepsiyani alohida sahnaviy xarakterlar orqali jonlantiradilar. Shuning uchun spektakldagi ijodiy natijani faqat rejissyorning qarashlari yoki alohida aktyorning mahorati bilan izohlash yetarli emas. Uning badiiy qiymati mazkur ikki ijodiy jarayonning o‘zaro uyg‘unligida shakllanadi.

1976-yil 10-martda “Buxoro haqiqati” gazetasida e’lon qilingan A. Xalilovning “Revizor bilan yangi uchrashuv” nomli maqolasi spektakl tarixini o‘rganishda muhim davriy manbalardan biridir. Muallif asarning Buxoro teatrida avval ham sahnalashtirilganiga to‘xtalib, 1940-yillardagi tajribani eslatadi. Shuningdek, yangi sahna talqinini Gogol dramaturgiyasining davomiy hayoti va teatr ijodkorlarining klassik merosga munosabati bilan bog‘liq holda baholaydi [5].

A. Xalilovning mazkur fikrlari 1976-yilgi spektaklni o‘z davrining teatr jarayoni doirasida o‘rganish imkonini beradi. Bunda teatr tanqidchisining bahosi bilan sahna asarining dramaturgik va ijrochilik xususiyatlari haqidagi mustaqil ilmiy xulosalarni farqlash zarur. Chunki matbuotda berilgan ijobiy munosabat spektaklning qabul qilinish tarixini yoritishga xizmat qilsa, uning rejissyorlik va aktyorlik xususiyatlarini aniqlash alohida tahliliy yondashuvni talab etadi.

“Revizor”ning Buxoro sahnasidagi 1976-yilgi talqini shu jihatdan klassik dramaturgiya va mahalliy aktyorlik an’analari o‘rtasidagi ijodiy munosabatni tadqiq etishga imkon beruvchi materialdir. Gogol komediyasining satirik tabiati aktyorlardan tashqi kulgi vositalari bilan cheklanmasdan, qahramonlarning ichki

ruhiy holatlari va xarakterlararo ziddiyatlarni ochishni talab qiladi. Aynan shu vazifa rejissyorlik konsepsiyasi, aktyorlik talqini hamda sahnadagi jamoaviy ijro o‘rtasidagi munosabatni markaziy masalaga aylantiradi.

Buxoro teatrining XX asr ikkinchi yarmidagi taraqqiyotini rejissyorlik va aktyorlik mahorati o‘zaro bog‘liqligida o‘rganish mazkur davr ijodiy jarayonlarining muhim xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda klassik dramaturgiya namunalari nafaqat repertuarni boyitgan, balki aktyorlarning turli janrlardagi obrazlarni yaratish, yangi xarakterlar ustida ishlash va sahnaviy ifoda vositalarini takomillashtirish imkoniyatlarini ham kengaytirgan.

Ubaydullo Baqoyev tomonidan 1976-yilda sahnalashtirilgan “Revizor” komediyasi Buxoro viloyati musiqali drama teatrida klassik dramaturgiyani o‘zlashtirish va rejissyorlik izlanishlarini o‘rganish uchun muhim sahna asarlaridan biri hisoblanadi. Uning tarixiy ahamiyati faqat Gogol komediyasining yana bir bor repertuardan o‘rin olganida emas, balki mazkur asar orqali teatr jamoasi oldiga qo‘yilgan ijodiy vazifalarning murakkabligida ham namoyon bo‘ladi.

Spektaklda Jafar G‘ulomovning Anton Antonovich, Muhammad Rafiqovning Xlestakov va Fayzulla Abdullayevning Osip rollaridagi ishtiroki Buxoro teatridagi aktyorlik imkoniyatlarini satirik xarakterlar doirasida tahlil qilish uchun asos yaratadi. Ushbu personajlarning dramaturgik tabiati bir-biridan farq qilsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy xususiyat ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy manfaatlar ziddiyatining turli ko‘rinishlarini ifodalashidir. Mazkur holat aktyorlar ijrosini alohida rollarning tavsifi bilangina cheklamasdan, xarakterlararo munosabatlar va jamoaviy ijro nuqtayi nazaridan o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

U. Baqoyevning “Revizor” spektakli misolida rejissyorlik va aktyorlik san’atining o‘zaro bog‘liqligi, klassik dramaturgiyaning mahalliy sahna muhitida o‘zlashtirilishi hamda an’anaviy ijrochilik tajribasining davomiyligi kabi masalalarni bir butun jarayon sifatida tadqiq etish mumkin. Shu sababli mazkur

spektakl Buxoro teatrining 1970-yillardagi ijodiy faoliyatini va uning aktyorlik maktabi rivojlanishidagi o‘rnini o‘rganishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Sahna san’ati” bo‘limining “O‘zbek teatrida XX–XXI asr boshlarida teatr shakllari va ifoda vositalarining evolyutsiyasi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida tayyorlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatr tarixi (1900–2007): darslik-monografiya. Toshkent: Art Press, 2010. 568 b.
2. G‘aybulloyev B. Buxoro viloyati musiqali drama teatri rivojida Aminjon Akobirov rejissurasining o‘rni // Madaniyat va san’at. Toshkent, 2023. № 2. B. 7–12.
3. Toshpo‘lat Hamid. Toshbolta oshiq // Buxoro haqiqati. 1962. May. № 94 (10 567).
4. Kamolov J. Gamlet – Buxoro sahnasida // Buxoro haqiqati. 1968. May. № 60 (11 879).
5. Xalilov A. Revizor bilan yangi uchrashuv // Buxoro haqiqati. 1976. 10-mart. № 4.

References

1. Tursunov, T. *XX asr o‘zbek teatr tarixi (1900–2007) [History of Twentieth-Century Uzbek Theatre (1900–2007)]*: Darslik-monografiya. Tashkent: Art Press, 2010. (in Uzbek)
2. G‘aybulloyev, B. “*Buxoro viloyati musiqali drama teatri rivojida Aminjon Akobirov rejissurasining o‘rni [The Role of Aminjon Akobirov’s Directing in the Development of the Bukhara Regional Musical Drama Theatre]*.” *Madaniyat va san’at*, no. 2 (2023): 7–12. (in Uzbek)
3. Toshpo‘lat Hamid. “*Toshbolta oshiq [Toshbolta in Love]*.” *Buxoro haqiqati*, May 1962, no. 94 (10 567). (in Uzbek)
4. Kamolov, J. “*Gamlet – Buxoro sahnasida [Hamlet on the Bukhara Stage]*.” *Buxoro haqiqati*, May 1968, no. 60 (11 879). (in Uzbek)
5. Xalilov, A. “*Revizor bilan yangi uchrashuv [A New Encounter with The Government Inspector]*.” *Buxoro haqiqati*, March 10, 1976, no. 4. (in Uzbek)